



TOVARLARNI BOJXONA HUDUDIDA HAMDA BOJXONA HUDUDIDAN TASHQARIDA QAYTA ISHLASH REJIMLARINING HUSUSIYATLARI VA BU REJIMLARDA BYUDNI TO‘LDIRISH TARTIBI

Shodiyev Tuychiboy Omonovich.

*O‘zbekiston Respublikasi Bojxona instituti Bojxona instituti Qayta
tayyorlash va malaka oshirish fakulteti katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqola bojxona hududida va bojxona hududidan tashqarida tovarlarni qayta ishlash rejimlarining hususiyatlarini tahlil qiladi. Qayta ishlash rejimlari, asosan, bojxona tartiblariga mos ravishda tovarlar va mahsulotlar bilan ishlash jarayonlarini nazarda tutadi. Bojxona hududida tovarlarni qayta ishlash rejimi bo‘yicha, tovarlar bojxona nazoratidan o‘tkazilgan holda ishlab chiqilishi yoki qayta ishlanishi mumkin. Bu rejimda mahsulotlarni import qilish, eksport qilish yoki ichki bozorga yo‘naltirish kabi amallar aniq tartibda amalga oshiriladi. Maqola, shu bilan birga, tovarlarni qayta ishlash rejimlarining amaliyotini va ularning bojxona qonunlariga mosligini o‘rganadi hamda BYUDni to‘ldirishda yuzaga keladigan muammolarni va ularning yechimlarini ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar: rejim, qayta ishlash, bojxona yuk deklaratsiyasi, statistik qiymat, bojxona qiymati, tovarlar faktura qiymati.

Hozirgi jahon iqtisodiyotiga integrallashuv jarayonida O‘zbekistonda olib borilayotgan bozor islohotlari tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish mexanizmida tub o‘zgarishlar qilinishini talab etmoqda. Ushbu jarayonni amalga oshirish bojxona organlariga ularning vakolatlaridan kelib chiqqan holatda bir qancha vazifalarni yuklaydi.

Integratsion jarayonlar, kooperatsiya va ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi natijasida tashqi iqtisodiy bitimlarning o‘ssishi bilan iqtisodiy rejimlar paydo bo‘ldi, ular orasida O‘zbekiston Respublikasiga olib kiriladigan yoki undan olib chiqilayotgan tovarlarga nisbatan bojxona to‘lovlari bo‘yicha muayyan imtiyozlar



berish imkoniyati mavjud qayta ishlash bo'xona rejimlarining o'zni alohida. Qayta ishlash bo'xona rejimlarining mamlakat iqtisodiyatini rivojlantirishdagi asosiy o'zni, korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlarini maksimal sarflagan holda yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ish bilan ta'minlashda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar Aholi bandligi va daromadlarini oshirishga har tomonlama ko'maklashish va ularning turmush tarzini yaxshilashga qaratilmoqda. Chunonchi, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, —...biz yangi ish o'rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularni yelkamizda ko'tarishimiz kerak.

Ochiq bozor mahsulot sifatini oshirish, tannarxni pasaytirish, yangi texnologiyalar olib kelishga majbur qiladi, bozor islohotlarini jadal rivojlantiradi. Sodda qilib aytsek, jahon ishlab chiqarish tizimiga, dunyo bozori talablariga va iqtisodiy integratsiya jarayonlariga hamohang bo'lishimiz lozim.

Hozirgi kunda qayta ishlash bo'xona rejimlari o'z vazifasini to'laqonli amalga oshirmasligi ularni tartibga soluvchi huquqiy baza takomillashmagani, bo'xona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya talablariga to'la javob bermasligi hamda xalqaro amaliyotga ega emasligi bilan izohlanadi.

Qayta ishlash rejimlari talablarini soddalashtirish va optimallashtirishni tadqiq etishda jahon tajribasi muhim ahamiyat kasb etadi. Qayta ishlash rejimlarini qo'llash mexanizmini qiyoslash metodi orqali tadqiq qilish ushbu rejimlar rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga obyektiv baho berish imkoniyatini yuzaga keltiradi.

Tashqi tomondan endashganda qayta ishlash bo'xona rejimlari xalqaro iqtisodiy tizimi hisoblanadi. Qayta ishlash bo'xona rejimlarini tadqiq qilish bo'xona rejimlarini umumiy holda ko'rib chiqishni taqozo etadi. Boshqa iqtisodiy tushunchalar singari bo'xona rejimi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi.



Globalashuv jarayonida xalqaro munosabatlarning mutlaqo yangi tizimi shakllanmoqda. Bir biriga turli darajada bog‘liq bo‘lgan milliy iqtisodiyotlarning ko‘rinishi integratsiyalashgan tizimga aylantiriladi, bu tizimlarda iqtisodiyotlar chambarchas bog‘liq tarkibiy qismlarga aylanadi. Ushbu tizimda bir mamlakat iqtisodiyotining o‘zgarishi boshqa mamlakat iqtisodiyotining o‘zgarishiga olib keladi, bunda xo‘jaliklar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tarkibiy qismlarga aylanadi. Boshqa tomondan, har bir mamlakat iqtisodiyotining holati global iqtisodiy tizimning holati bilan belgilanadi. Ushbu hodisani —bitimlar, tovarlar, xizmatlar va xalqaro kapital oqimlarining ko‘payishi va xilma-xilligi, shuningdek, texnologiyalarning tez va keng tarqalishi natijasida dunyo miqyosidagi mamlakatlarning iqtisodiy o‘zaro bog‘liqligi o‘sib bormoqda deb tariflash mumkin

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga quyidagi talablarga va shartlarga rioya etilgan holda yo‘l qo‘yiladi:

1. olib chiqilgan tovarni bojxona organlari tomonidan uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash mumkin bo‘lganda, bundan qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarning oldindan olingan namunalarini yoki nusxalarini va uni qayta ishlash mahsulotini tadqiq etish natijalarini qiyoslash hollari mustasno;

2. ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalar uchun – tovarni qayta ishlash jarayonining texnik-iqtisodiy asoslari vakolatli organ bilan kelishilgan bo‘lsa, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno;

3. ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo‘lgan korxonalar uchun - tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazmasligi haqida vakolatli organning xulosasi mavjud bo‘lsa;

4. agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo‘lsa, bojxona organlarining axborot tizimida ushbu organlarning ruxsatnomalari mavjudligi;

5. texnik-iqtisodiy asoslarning va amaldagi qayta ishlash jarayonining ko‘rsatkichlari bir-biriga mos bo‘lishi;



6. tovarni qayta ishlash operatsiyalarining Bojxona kodeksi 43-moddasi talablariga muvofiq bo'lishi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining amal qilish muddati va qayta ishlash muddati tovar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran, tovar alohida turkumlar bilan olib chiqilganda esa, tovarning birinchi turkumi bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza bojxona organiga ushbu amal qilish muddati tugashiga kamida bir oy qolganda berilishi kerak. Rejimning amal qilish muddatini uzaytirish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilganligi BYUDda ko'rsatilgan tovarni qayta ishlash muddatini uzib qo'ymaydi yoki to'xtatib turmaydi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining amal qilish muddatini uzaytirish rad etilgan taqdirda, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar Bojxona kodeksida belgilangan tartibga muvofiq boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi ma'lum qilinishi kerak.

Tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashda BYUDni to'ldirish

Tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirishda deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan BYUDning quyidagi grafalari to'ldiriladi: 1, 2, 3, 5, 7 (post kodi), 8, 9, 11, 12, 13, 14, 17, 17a, 18, 19, 20, 22, 23, 24, 25, 26, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50, 54, "S".

BYUDning 42, 45, 47, 50-grafalarining to'ldirilishi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) 42-grafa. "Tovarning faktura qiymati".



Grafada tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati ko'rsatiladi.

Beg'araz asosda qayta ishlashda grafada "0" ko'rsatiladi.

Tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

3) 45-grafa. "Bojxona qiymati".

Grafaning o'ng bo'lmasida tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarning bojxona qiymati ko'rsatiladi. Bojxona qiymati O'zbekiston Respublikasi Bojxona qonunchiligida belgilangan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash usullariga muvofiq hisoblanadi.

Bojxona qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

4) 47-grafa. "Bojxona to'lovlarining hisobi".

Grafa quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olingan holda to'ldiriladi: bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imning hisoblash asosi qayta ishlash uchun xizmatlar qiymatidan hisoblanadi. Hisoblash uchun asosni aniqlashda qayta ishlash xizmatlari qiymatini O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida qayta hisoblash O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan, BYUD rasmiylashtiruv uchun qabul qilingan kundagi kurs bo'yicha amalga oshiriladi;

5) 50-grafa. "Ishonch bildirgan shaxs".

Grafa quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda to'ldiriladi: grafada qo'shimcha ravishda quyidagi mazmundagi yozuv amalga oshiriladi: "Tovarni qayta ishlash muddati yakunlangach uni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun XX.XX.XXXX ga qadar bojxona organlariga murojaat qilish majburiyatini olaman", bu yerda XX.XX.XXXX tegishli kun, oy va yilni anglatadi.

Tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlagandan so'ng qaytarib olib kirishda BYUDni to'ldirish.



Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimidan so'ng qayta ishlash mahsulotlarini hamda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarlarning chiqindilarini qaytarib olib kirish erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimi talablariga muvofiq, quyida ko'rsatilgan alohida grafalarni to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda to'ldirilgan BYUDni taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

BYUDning 42, 45, 46 va 47-grafalarining to'ldirilishi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) 42-grafa. "Tovarning faktura qiymati".

Grafada tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasida deklaratsiyalanayotgan tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati ko'rsatiladi.

Beg'araz asosda qayta ishlashda grafada "0" ko'rsatiladi.

Tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

2) 45-grafa. "Bojxona qiymati".

Grafaning o'ng bo'lmasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarning tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasidagi bojxona qiymati ko'rsatiladi.

Qayta ishlash mahsulotlarini olib kirishda bojxona qiymati tarkibida qayta ishlash bo'yicha operatsiyalar qiymati ham hisobga olinadi.

Bojxona qiymati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash usullariga muvofiq hisoblanadi.

Bojxona qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

3) 46-grafa. "Statistik qiymat".

Grafada 45-grafada keltirilgan bojxona qiymati asosida hisoblangan tovarlarning statistik qiymati ming AQSH dollarida ko'rsatiladi. Statistik qiymat matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi uch belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi.



Statistik qiymatni hisoblashda BYUD bojxona rasmiylashtiruvi uchun qabul qilingan kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs qo'llaniladi;

4) 47-grafa. “Bojxona to'lovlarining hisobi”.

Grafa quyidagi o'ziga xos xususiyatga muvofiq to'ldiriladi.

Shu bilan birga, qayta ishlash mahsulotlari bo'yicha bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imning hisoblash asosi, qayta ishlash bo'yicha operatsiyalar qiymatini inobatga olgan holda, qayta ishlash mahsulotlarining bojxona qiymatidan hisoblanadi.

Boshqa bojxona to'lovlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblanadi va undiriladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarni hamda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarning qoldiqlarini qaytarib olib kirish reimport bojxona rejimiga muvofiq, quyida ko'rsatilgan alohida grafalarni to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda to'ldirilgan BYUDni taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

BYUDning 42, 45, 46 va 47-grafalarining to'ldirilishi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) 42-grafa. “Tovarning faktura qiymati”.

Grafada tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati ko'rsatiladi.

Beg'araz asosda qayta ishlashda grafada “0” ko'rsatiladi.

Tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

2) 45-grafa. “Bojxona qiymati”.

Grafaning o'ng bo'lmasida tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarning bojxona qiymati ko'rsatiladi. Bojxona qiymati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash usullariga muvofiq hisoblanadi.



Bojxona qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

3) 46-grafa. "Statistik qiymat".

Grafada 45-grafada keltirilgan bojxona qiymati asosida hisoblangan tovarlarning statistik qiymati ming AQSH dollarida ko'rsatiladi. Statistik qiymat matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi uch belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi.

Statistik qiymatni hisoblashda BYUD bojxona rasmiylashtiruvi uchun qabul qilingan kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs qo'llaniladi;

4) 47-grafa. "Bojxona to'lovlarining hisobi".

Bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imning hisoblash asosi tovarning bojxona qiymatidan hisoblanadi.

Boshqa bojxona to'lovlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblanadi va undiriladi.

Tovarlarni bojxona hududida qayta ishlashda va qayta ishlashdan so'ng qaytarib olib chiqib ketishda BYUDni to'ldirish.

Deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan BYUDning quyidagi grafalari to'ldiriladi: 1, 2, 3, 5, 7 (post kodi), 8, 9, 11, 12, 13, 14, 15, 15a, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 28, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50, 54, "S".

BYUDning 42, 45, 46, 47, 50-grafalarining to'ldirilishi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) 42-grafa. "Tovarning faktura qiymati".

Grafada tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati ko'rsatiladi.

Beg'araz asosda qayta ishlashda grafada "0" ko'rsatiladi.

Tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

3) 45-grafa. "Bojxona qiymati".



Grafiyning o'ng bo'limasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarning tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasidagi bojxona qiymati ko'rsatiladi. Bojxona qiymati O'zbekiston Respublikasi Bojxona qonunchiligida belgilangan tovarlarning bojxona qiymatini aniqlash usullariga muvofiq hisoblanadi.

Bojxona qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan so'ng ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

4) 46-grafa. "Statistik qiymat".

Grafada 45-grafada keltirilgan bojxona qiymati asosida hisoblangan tovarlarning statistik qiymati ming AQSH dollarida ko'rsatiladi. Statistik qiymat matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi uch belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi.

Statistik qiymatni hisoblashda BYUD bojxona rasmiylashtiruvi uchun qabul qilingan kunda amalda bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs qo'llaniladi;

5) 47-grafa. "Bojxona to'lovlarining hisobi".

Grafa quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda to'ldiriladi: bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imning hisoblash asosi qayta ishlash uchun xizmatlar qiymatidan hisoblanadi. Hisoblash uchun asosni aniqlashda qayta ishlash xizmatlari qiymatini O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida qayta hisoblash O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan, BYUD rasmiylashtiruv uchun qabul qilingan kundagi kurs bo'yicha amalga oshiriladi;

5) 50-grafa. "Ishonch bildirgan shaxs".

Grafa quyidagi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda to'ldiriladi: grafada qo'shimcha ravishda quyidagi mazmundagi yozuv amalga oshiriladi: "Tovarni qayta ishlash muddati yakunlangach uni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun bojxona organlariga murojaat qilish majburiyatini olaman".

Tovarlarni bojxona hududida qayta ishlashdan so'ng qaytarib olib chiqib ketishda BYUDni to'ldirish

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimidan so'ng qayta ishlash mahsulotlarini, bojxona hududida qayta ishlash uchun olib kirilgan tovar, tovarning



chiqindilari va qoldiqlarini qaytarib olib chiqib ketish reeksport bojxona rejimiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda deklaratsiyalovchi shaxs tomonidan bojxona organlariga Tovarlarini reeksport bojxona rejimiga joylashtirishda BYUDni to'ldirish talablariga muvofiq, quyida ko'rsatilgan alohida grafalarni to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, to'ldirilgan BYUD taqdim etiladi.

BYUDning 42, 45 va 47-grafalarining to'ldirilishi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1) 42-grafa. "Tovarning faktura qiymati".

Grafada tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasida deklaratsiyalanayotgan tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati ko'rsatiladi.

Beg'araz asosda qayta ishlashda grafada "0" ko'rsatiladi.

Tovarni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan keyingi ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

2) 45-grafa. "Bojxona qiymati".

Grafaning o'ng bo'lmasida 31-grafada deklaratsiyalanayotgan tovarning tashqi savdo kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) valyutasidagi bojxona qiymati ko'rsatiladi.

Qayta ishlash mahsulotlarini olib chiqib ketishda bojxona qiymati tarkibida qayta ishlash bo'yicha operatsiyalar qiymati ham hisobga olinadi.

Bojxona qiymati matematik qoidalarga ko'ra verguldan so'ng ikki belgigacha aniqlikda yaxlitlanadi;

3) 47-grafa. "Bojxona to'lovlarining hisobi".

Grafa qayta ishlash mahsulotlari bo'yicha bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imning hisoblash asosi, qayta ishlash uchun operatsiyalar qiymatini inobatga olgan holda, qayta ishlash mahsulotlarining bojxona qiymatidan hisoblanadi.

Boshqa bojxona to'lovlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblanadi va undiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2018-yil 18-oktyabr. (O'RQ-502-son Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).
2. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) O'zR 06.05.2000. 77-II-con Qonuni bilan tasdiqlangan.
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar, O'RQ 419-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5414-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5953-sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi PF 6003-sonli Farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005 - sonli Farmoni